NKMK — yuksak sifat, samaradorlik va ijtimoiy himoya kafolati!

# KONCHILAR HAYOTI

Gazeta 1991-yildan chiqa boshlagan №2 (764), 2024-yil 29-yanvar

facebook.com/nkmkofficial t.me/ngmkofficial instagram.com/nkmk.official www.ngmk.uz

■ Dolzarb mavzu

## KUN TARTIBIDA – FAN VA ISHLAB CHIQARISH INTEGRATSIYASI

**Navoiy kon-metallurgiya kombinati tashabbusi bilan Navoiy mashinasozlik zavodida Toshkent davlat texnika universiteti hamda Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti olimlari ishtirokida fan va ishlab chiqarish integratsiyasi masalasiga bag‘ishlangan yig‘ilish hamda texnika universiteti rektori, kimyo fanlari doktori, akademik Sadriddin Turobjonov bilan uchrashuv bo‘lib o‘tdi. Unda kombinat bosh direktori Quvondiq Sanaqulov, kombinat muhandis-texnologlari, energetiklar, kimyogarlar hamda oliy o‘quv yurtlari olimlari ishtirok etishdi.**




O‘tgan yilda kombinat tomonidan oliy o‘quv yurtlari, ilmiy-tadqiqot institutlari bilan hamkorlikda umumiy qiymati 61 milliard so‘m bo‘lgan 43 ta xo‘jalik shartnomasi tuzilgan. Joriy yilda bu ko‘rsatkich oshishi, asosiy e’tibor ishlab chiqarishda yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan muammolar yechimiga qaratilishi ta’kidlandi.

Tadbirda kombinat ishlab chiqarish tuzilmalarida olib borilayotgan ishlar, yangi ishlab chiqarish maydonlari yaratilayotganligi, kombinatning texnologik salohiyatini oshirishga qaratilgan ilmiy-tadqiqotlarning ahamiyati, jumladan, oliy ta’lim muassasalarida innovatsion faoliyat uchun qulay shart-sharoit yaratish dolzarb vazifa ekanligi aytib o‘tildi. Ayniqsa, iqlim o‘zgarishi ta’sirlari, jumladan, ishlab chiqarish uchun texnik suvni tayyorlash, tejash va aholi uchun ichimlik suvini yetkazib berish muammolari to‘g‘risida so‘z bordi.

Akademik S.Turobjonov so‘zga chiqib, kombinatning barcha tuzilmalarida universitetning yuzlab bitiruvchilari mehnat qilayotganligini e’tirof etib, o‘zi ham dastlabki ilmiy faoliyatini Navoiy shahridan boshlaganini mamnuniyat bilan ta’kidladi. Shu bilan birga, mamlakat taraqqiyotining bugungi bosqichida yuqori malakali kadrlar tayyorlash, ilmiy-tadqiqot, izlanishlarni yanada kuchaytirish, iqtisodiyotning rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatuvchi ilmiy-amaliy dasturlar, innovatsion loyihalarni ishlab chiqish, ularni manzilli yo‘naltirishda ta’lim, fan va ishlab chiqarishning uzviy aloqadorligini ta’minlash muhimligini aytib o‘tdi.

Shundan so‘ng, kombinat mutaxassislari va universitet olimlarining ishlab chiqarishdagi muammolar yechimini topishdagi ilmiy-amaliy ishlari to‘g‘risidagi axboroti tinglandi. Kombinat bosh energetigi G‘.Xolboyev korxonada energetika tizimini takomillashtirish doirasida konchilik va texnologiyalar universiteti olimlari bilan hamkorlikda kelajakda elektr simlari yuzasidan past haroratda hosil bo‘ladigan muzlashning oldini olish bo‘yicha rejalashtirilayotgan loyihalar to‘g‘risida gapirdi.

Bosh mexanik O‘.Raxmatov ehtiyot qismlarning chidamlilik davrini oshirish, yangi qotishmalar, moylash vositalari bo‘yicha mavjud muammolar hamda oliy ta’lim muassasalari bilan yaqindan hamkorlik qilish zarurligi haqida to‘xtalib o‘tgan bo‘lsa, “Qizilqum” kon boshqarmasi direktori o‘rinbosari A.Mirzayev biologik modifikatsiyalangan nanomateriallarning ahamiyati hamda materialshunoslik sohasida mazkur mavzuda ilmiy-tadqiqotlar olib borish to‘g‘risida gapirdi. Markaziy ilmiy-tadqiqot laboratoriyasi bosh muhandisi A.Muzaffarov esa metallarga radiatsion ishlov berish orqali ularning xossalarini takomillashtirish, gamma aktivatsion analiz usullarini qo‘llash bilan ma’danlar va ularni qayta ishlash mahsulotlari tarkibidagi oltin va unga aloqador yo‘ldosh elementlarni aniqlash, shuningdek, sho‘rlanish muammolari doirasida oliy ta’lim muassasalari va ilmiy tekshirish institutlari bilan hamkorlikda qilingan ishlar to‘g‘risida ma’lumot berdi. Mazkur laboratoriya boshlig‘i o‘rinbosari M.Qurbonov uran ma’danlarini qazish va qayta ishlash bo‘yicha universitetlar olimlari bilan hamkorlik qilish muhimligini ta’kidlab, bir qator loyihalar ishlab chiqilayotganligini e’tirof etdi.

Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti professori B.Muhiddinovning olimlar tomonidan kombinat muammolari yechimiga doir bajarilayotgan xo‘jalik shartnomalari hamda keyingi yillarda amalga oshirilishi rejalashtirilayotgan loyihalar bo‘yicha hisoboti tinglandi. Bu boradagi ishlar to‘g‘risida O‘zbekiston milliy universiteti professori O.Qodirovning ishlab chiqarish uchun kimyoviy reagentlarning aksariyat qismi chet eldan import qilinishi, mazkur reagentlarni O‘zbekistonda ishlab chiqarishni tashkil etish doirasida ilmiy hamkorlik qilish taklifi ma’qullandi.

Uchrashuv natijalari asosida majlis bayoni uch tomonlama tasdiqlandi. Unga ko‘ra, Navoiy kon-metallurgiya kombinati, Toshkent davlat texnika universiteti hamda Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti o‘rtasida ishlab chiqarish korxonalarining muammoli masalalarini hal etishda fan, ta’lim va ishlab chiqarish integratsiyasini rivojlantirish maqsadida, oliy ta’lim muassasasi, fan va ishlab chiqarishning innovatsion korporativ hamkorligini tashkil etish bo‘yicha Ishchi guruh tuzildi.

Yig‘ilishda bir oy muddatda “Navoiy kon-metallurgiya kombinati” AJ mutaxassislari hamda ikkala universitet olimlari hamkorligida 2024-2030-yillarga mo‘ljallangan Innovatsion dastur ishlab chiqish vazifasi belgilandi. Joriy yilning mart oyida “Muruntov forumi”ning navbatdagi yig‘ilishini tashkil etish, ishlab chiqilgan Innovatsion dastur doirasida olimlarning loyihalar bo‘yicha taqdimot seminarini o‘tkazish belgilab olindi. “Muruntov forumi” jamg‘armasini tashkil etish masalasini forum ishtirokchilari (a’zolari) bilan ishlab chiqib, zaruriy hujjatlarni tayyorlash ham belgilab olindi. Jamg‘arma mablag‘lari asosida korxonalar muammolari yechimlariga qaratilgan ilmiy loyihalar tanlovini o‘tkazish bo‘yicha komissiya tarkibi shakllantirilishi va tasdiqlanishiga kelishib olindi.

**Azamat ZARIPOV.**

■ 2024 – Yoshlar va biznesni qo‘llab-quvvatlash yili

## IZLANUVCHAN YOSHLAR

**Navoiy kon-metallurgiya kombinatida ratsionalizator, izlanuvchan yoshlar ko‘plab topiladi. Ular yaratayotgan ixtiro va takliflar qo‘llab-quvvatlanib, korxonaga sezilarli iqtisodiy samara keltirmoqda. Bunday natijadorlikka erishishda Markaziy kon boshqarmasi vakillari ham faol ishtirok etib kelishyapti.**



Xayrullo Bo‘riyev, Valijon Musayev, Uchqun Boynazarov, Jo‘rabek Hikmatovlar Temiryo‘l transporti boshqarmasining izlanuvchan yoshlaridan. Ular bir necha yildan buyon yangi-yangi ixtirochilik takliflarini yaratish ustida hamkorlikda ishlashmoqda. D49 va D50 dizellarning yuqori bosimli yoqilg‘i nasoslarini sinash stendi ularning ratsionalizatorlik taklifi asosida yaratildi.

Yuqori bosimli yoqilg‘i nasoslari 320 atmosfera bosimi ostida yoqilg‘ini forsunkalar orqali dizel yonish kamerasiga yetkazib berish uchun mo‘ljallangan. Shu kunga qadar TYTBning Lokomotiv deposida D49 va D50 turdagi dizellar uchun yuqori bosimli yoqilg‘i nasoslarini sinovdan o‘tkazish stendi mavjud emas edi. Ijodkor yoshlarning g‘oyasi ishlab chiqarishga joriy etilgach, mazkur turdagi dizellarning yuqori bosimli yoqilg‘i nasoslari ta’mirlanishining sifatini sinovdan o‘tkazish stendi yaratildi. Stendning afzalligi shundaki, dizel yoqilg‘isi sarfini, ekologiya va atrof-muhitga salbiy ta’sirini hamda texnologik jarayonning muddatini sezilarli darajada kamaytiradi. Yosh mutaxassislarning ixtirochilik taklifi qo‘llanilishi evaziga korxonada yiliga 670 million so‘mdan ko‘proq iqtisodiy samaraga erishilmoqda. Bundan tashqari teplovozlarning dizel generatorlari sifatli va barqaror ishlashi ta’minlanayapti.

Kombinatda ixtirochi va ratsionalizatorlarning qo‘llab-quvvatlanayotgani, ularning iqtisodiy samara beradigan takliflari moddiy va ma’naviy rag‘batini topayotgani, bu borada alohida tanlovlar tashkil etilayotgani yoshlarni yangiliklar yaratishga ruhlantirmoqda.

**Dildora KARIMOVA.**

■ Mehnat jamoalarida

## KASBINI SHARAFLAYOTGANLAR

**“Auminzo-Amantoy” koni muhandis-geologi Sayfiddin G‘ayratov 33 yildirki, sahro bag‘rida. Ona zamin qa’rida yashirinib yotgan boyliklarni tadqiq qilib, qazib olish ishlariga kamarbasta. Sohasining bilimdoni bo‘lgan bu inson o‘zi haqida gapirishni emas, aksincha ishlashni afzal ko‘radi. Kasbining sir-asrorlari bilan tanishtiring desak, miyig‘ida kuladilarda, bunda sir yo‘q, faqatgina aniqlik va mehnat bor, deb qo‘ya qoladilar.**



“Geologiya-qidiruv ekspeditsiyasi tomonidan berilgan ma’lumotlar to‘planib konda qancha ma’dan borligi aniqlanadi. Portlatish ishlari olib boriladigan sathda burg‘ilash quduqlari qazilib, u yerdan chiqqan ma’dan laboratoriyaga jo‘natiladi. Laboratoriya tahlillariga ko‘ra konda qancha va qanday tarkibli ma’dan borligi aniqlanib portlatish ishlari olib boriladi. Konni portlatish, ma’danni qazish, ulardan namuna olib, tarkibini o‘rganish geologlar zimmasidagi vazifa. Safimiz bilimdon, izlanuvchan, shijoatli yoshlar bilan to‘lmoqda”, – deydi Sayfiddin G‘ayratov.

Joriy yilda 7 nafar yosh oliy o‘quv dargohini bitirib, kon geologlari safiga qo‘shilgan bo‘lsa, Geologiya universiteti bitiruvchisi Otabek Elmurodov bu yerda amaliyot o‘tamoqda.

Ayni paytda “Auminzo-Amantoy” konida 76 nafar geolog xodim xizmat qiladi. Ularning 63 nafari “Auminzo-Amantoy” koni geologiya xizmatida, 13 nafari “Turbay” karyeri bosh geolog byurosida faoliyat yuritishadi. Mazkur mutaxassislarning vazifasi Qizilqum cho‘llari bag‘ridagi oltin ma’danlarning sifatsizlanishiga yo‘l qo‘ymasdan qazib olish, zaxiralarni hisoblash va kengaytirishdir. “Auminzo-Amantoy” koni faoliyati boshlangandan buyon 25 ga yaqin konlar ochilib, ularning bir qismida qazib olish ishlari yakunlandi. Kon geologiya xizmati tomonidan ma’dan tanasi sifatini yo‘qotishlarga yo‘l qo‘ymaslik maqsadida turli usullardan foydalanilmoqda. Kanava usulida ma’dan tanasining chegarasi aniq ko‘rinadi va bu kichik konlar miqyosida sifatli ma’dan olishning samarali usuli hisoblandi. Hozir “Markaziy Amantoy” konida qo‘llanilayotgan bu usul burg‘ilash quduqlari soni kamayishi hisobiga tannarxning oshib ketmasligiga imkon beradi. “Turbay” konida ham kanava usuli yordamida sinov tariqasida bir necha sathlardan namunalar olishga erishildi.

Konda “Turbay”, “Markaziy-Shimoliy”, “Amantaytau”, “Asaukak”, “Tomdibuloq”, “Qaraung‘ir” kabi istiqbolli konlarda oltin, “Nuqrakon” konida esa kumush ma’danini qazib chiqarish jadal sur’atda davom ettirilmoqda va yangi oltin konlarini o‘zlashtirish rejalashtirilmoqda. Yutuqlar zamirida kasbini sharaflayotgan insonlar – bosh geolog Xurshid Jarkinov, bosh geolog o‘rinbosari Hasan Janiyev, muhandis-geolog Sayfiddin G‘ayratov, malakali mutaxassislar Rahim Halimov, Halimjon Bahramov, Hakim Muzaffarov va boshqa uchastka geologlarining mashaqqatli mehnatlari mujassamdir.

**Gulshan RUSTAMOVA, muxbir.**

■ Tashabbus

**Bugun yurtimizda Prezidentimiz tashabbusi bilan kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish va qo‘llab-quvvatlashni yangi bosqichga olib chiqish jadal davom etmoqda. Navoiy kon-metallurgiya kombinati jamoasi ham bu jarayonda faol ishtirok etib kelmoqda.**

## KITOBDAN YAXSHIROQ DO‘ST YO‘Q JAHONDA!

Kombinat tomonidan har yili ko‘plab asarlar, to‘plamlar yaratilmoqdaki, buni alohida e’tirof etish joizdir. Kitob chiqarish, nodir asarlarning tarjima namunalarini yaratish, ularni chop etish, bu orqali xalqimizga ziyo tarqatish, kitoblarni muassasalarga beg‘araz ulashish korxonada an’anaga aylanib borayapti.

Yaxshi bilamizki, dunyo tamadduniga beqiyos hissa qo‘shgan buyuk allomalarimiz, olimlarimiz, yozuvchi-shoirlarimiz bor. Ular yaratgan shoh va nodir asarlar asrlar osha insoniyatga ma’naviy tafakkur bag‘ishlab kelayapti. Buyuk sarkarda Amur Temur bobomiz bejizga: “Kitob barcha bunyodkorlik, yaratuvchilik va aql-idrokning, ilmu donishning asosidir, hayotni yaratuvchi murabbiydir”, demagan. Hayotda yana shunday qonuniyat bor: har qanday yangilik eskirishi mumkin. Ammo, ma’naviyatimiz xazinasi bo‘lgan kitoblar va ulardan olgan bilim hech qachon eskirmaydi. Quyosh butun olamga harorat, yorug‘lik baxsh etsa, kitob qalblarga ziyo, ma’rifat ulashadi.

Yaqin yillargacha kombinatni faqat ishlab chiqarishdan iborat bo‘lsa kerak, deb o‘ylardim. Lekin aslida hammasi boshqacha, hech bir soha nazardan chetda emas ekan. Buni birgina korxonada ma’naviyat va ma’rifat, ijod, kitobxonlikka bo‘lgan e’tibordan ham bilish mumkin. 2017-2023-yillarda kombinat tashabbusi bilan turli tillarda nashr etilgan 40 dan ortiq ilmiy-texnikaviy, badiiy, publitsistik kitoblar, o‘quv qo‘llanmalar, tarjima asarlar, kitob-albomlar buning isbotidir. Bu borada sarflanayotgangan mablag‘ ma’muriyatning kitobga bo‘lgan e’tibori, izlanishlar olib borayotgan tadqiqotchilar, ijod ahli qo‘llab-quvvatlanayotganidan dalolatdir. Zero, bunday xayrli ishlarga sarflangan mablag‘ xalqimiz ma’naviyatini oshirish, yoshlarimiz kelajagi, bilimini o‘stirish, hayot yo‘lini tanlashga xizmat qiladi.

Yaqinda kombinat yana bir xayrli ishga qo‘l urdi. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan sanoat xodimi, texnika fanlari doktori, professor Q.Sanaqulov tahriri ostida “Справочник вредные вещества их классификаация и общие требования безопасности” kitobi nashr etildi. Bu tashabbus kimyogarlar, kimyogar-texnologlar, metallurglar, qolaversa, oliy o‘quv yurtlari o‘qituvchilari va talabalari, yosh mutaxassislar uchun muhim qo‘llanma bo‘lishi tabiiy.

Har qanday kitob inson tafakkuri, iste’dodi bilan yaraladi. Uning o‘qishligi muallif va muharrir, dizayni hamda bezaklanishi esa noshir mahoratiga bog‘liq. Buni amalga oshirish oson emas. Vaqt, izlanish, yuksak salohiyat talab etadi. Pishiq-puxta, mahorat bilan yozilgan har qanday asar tez ommalashadi, o‘quvchisini topadi, hech qachon qadr-qimmatini yo‘qotmaydi. Yuqorida keltirilgan qo‘llanmani ilm-fan mulkining xuddi shunday javohirlaridan biri, deyish mumkin.

Ma’lumki, har qanday sanoat mahsulotini tayyorlashda kimyoviy moddalardan foydalaniladi. Ulardan kerakli miqdorda foydalanish turmush darajamiz, sog‘ligimiz va farovonligimizni oshirishni ta’minlaydi. Xavfli kimyoviy vositalar borki, ular to‘g‘ri boshqarilmasa, sog‘ligimiz va atrof-muhitga salbiy ta’sir etadi.

Yetti yuzu yetmish olti betdan iborat va ming nusxada chop etilgan bu kitobni yaratishda mamlakatimizning tibbiyot, kimyo, biologiya, geologiya, texnika sohalarining 35 nafar taniqli olimlari, tajribali muharrir va musahhihlari ishtirok etdi. Ularning mahorati, ulkan salohiyati mahsuli sifatida “Sahhof” nashriyotida nashrga tayyorlangan kitob har jihatdan talabga to‘liq javob beradi. Kitobning ahamiyatli tomoni shundaki, ilmiy ahamiyatga ega bu qo‘llanma kitobxonni fikrlashga, unda keltirilgan kimyoviy elementlarning xususiyatlarini chuqur va to‘g‘ri idrok etishga, ilm sirlarini to‘la anglashga katta imkoniyat yaratadi.

Davomi 2-betda

■ Shifokor minbari

**Navoiy kon-metallurgiya kombinatida sog'liqni muhofaza qilishning birinchi darajasidan tortib, aholiga yuqori texnologik tibbiy xizmat ko'rsatishgacha bo'lgan yagona tizimi faoliyat ko'rsatmoqda. Davolash-profilaktika muassasalarida zamonaviy talablar darajasida tibbiy-sanitariya yordami ko'rsatish uchun barcha zarur shart-sharoitlar yaratilgan. Kombinat mehnatkashlari va ularning oila a'zolari sog'liqlarini mustahkamlash, kasalliklar profilaktikasi, diagnostikasi va davolash ishlari samaradorligini oshirishning muhim omili sifatida kombinat sog'liqni saqlash tizimini takomillashtirish, sohaga yangi uslublar, ilg'or tajribalar va zamonaviy texnologiyalarni joriy etish yuzasidan keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda.**

# ZAMON TALABI DARAJASIDA

Kombinat rahbariyati tashabbusi bilan ma'naviy eskirgan jihozlar bosqichma-bosqich yangilanmoqda. 2020-2023-yillarda tibbiyot muassasalarimiz moddiy-texnika bazasini boyitish bo'yicha ishlar davom ettirildi. Bu davrda, 200 tadan ko'p zamonaviy asbob-uskunalar olib kelindi. 2024-yilda ham universal angiograf, MRT va boshqa zamonaviy tibbiy asbob-uskunalar olish rejalashtirilgan.

Soha xodimlari malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash doimiy e'tiborda. 2023-yilda O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi tibbiyot xodimlarining kasbiy malakasini rivojlantirish markazida sohaning 100 nafardan ortiq xodimlari o'qitildi. Bo'limda Rossiya, Polsha, Janubiy Koreya, Fransiya va boshqa xorijiy davlatlar yetakchi klinikalari mutaxassislarining mahorat darslari tashkil etilmoqda.

Bugungi kunda respublikamizning yetakchi klinikalari mutaxassislarini jalb qilgan holda bosh miyada, umurtqa pog'onasida, periferik nerv tolalarida amaliyotlar o'tkazilmoqda. Bosh chanog'i trepanatsiyasi, gematomalarni olib tashlash, bosh chanog'i defekti plastikasi amaliyotlari amalga oshirilmoqda. Urolog shifokorlar tomonidan buyrak, prostata bezi, siydik chiqarish yo'llari va siydik pufagida jarrohlik amaliyotlari o'tkazilmoqda. 2011-yildan buyon katta yirik bo'g'imlarda yuqori texnologiyali amaliyotlar, chanoq-son va tizza bo'g'imini endoprotezlash amaliyotlari bajarilib, ijobiy va funksional natijalarga erishilmoqda.

Tibbiyotdagi o'zgarishlar va yangiliklarni hisobga olgan holda bo'limda eng yangi texnologiyalar bosqichma-bosqich joriy etilmoqda. 2023-yilda 50 dan ortiq fakoemulsifikatsiya – ko'z gavharini tig' tekkizmasdan almashtirish amaliyoti o'tkazildi. Ixtisoslashtirilgan davolash bo'limida qo'shimcha apparatli va apparatsiz plazmoferez muolajasi – qondagi plazmani ma'lum miqdorda ajratib olib tashlash asosida organizmni keraksiz moddalardan tozalash usuli yo'lga qo'yilib, 300 dan ortiq plazmoferez muolajasi o'tkazildi. Otorinolaringologiya bo'limida bemorlarni diagnostika va davolash uchun juda qulay bo'lgan eng so'nggi rusumdagi "Lor- kombayn" apparati o'rnatildi.

Klinik-diagnostika laboratoriyada deyarli barcha zamonaviy klinik va biokimyoviy, serologik, izoserologik tekshiruvlar o'tkaziladi. Bo'lim tarkibidagi ekspress-laboratoriya ikki smenada uzluksiz ishlaydi. Funksional diagnostika bo'limida jahon standartlariga mos zamonaviy tashxislash tekshiruv apparatlarining o'rnatilishi ishchi-xodimlar orasida kasalliklarni erta aniqlash va oldini olish uchun zamin yaratdi.

Ishchi-xodimlarda kuzatilishi mumkin bo'lgan kasalliklarning oldini olish va aniqlashda Sanitariya-epidemiologiya nazorati markazidagi yangiliklar ham anchani tashkil etmoqda. 2023-yilda PZR usuli bo'yicha TORCH infeksiyaning 16 xil nomdagi turiga, gepatit kasalligining B, S, D turlariga sifat, son genotipi bo'yicha tahlil o'tkazish hamda IFA usulida gelmentlarni aniqlash uchun reaktivlar sotib olindi va amaliyotga tadbiq etilmoqda.

Qo'shni davlatlarda va respublikamizning ayrim hududlarida bolalar orasida qizamiq kasalligining ortayotganligi sababli NKMK ishchi-xodimlarining 6 oylikdan 7 yoshgacha bo'lgan farzandlari O'zbekiston Respublikasining profilaktik emlash kalendariga ko'ra 11 turdagi vaksinalar bilan emlandi.

Jarrohlik bo'limida bo'g'imlarga endoprotez qo'yish amaliyotining samaradorligini oshirish va sifatini yanada yaxshilash maqsadida Italiya davlatidan shifokor-mutaxassislar jalb etilib, Tibbiy-sanitariya bo'limi jarroh-shifokorlari bilan birgalikda master-klasslar o'tkazildi.

Rentgen bo'limimizga olib kelingan MSKT (multispiralli kompyuter tomografiyasi) apparati yordamida bir qancha kasalliklarni aniqlash hamda diagnostika qilishda muvaffaqqiyatlarga erishilmoqda.

Oftalmologiya bo'limida o'tgan yilning oktabr oyidan boshlab ko'z gavhari xiralashgan bemorlarda yangi fakoemulsifikator lazer apparati yordamida ko'z gavharini AQSH va Hindiston hamkorligida ishlab chiqarilgan sun'iy infraokulyar linzalarga almashtirish amaliyotlari o'tkazilmoqda.

2023-yilda foydalanishga topshirilgan 6-gidrometallurgiya zavodi va "Pistali" koni ishchi-xodimlarining salomatligini muhofaza qilish maqsadida hududda feldsherlik sog'lomlashtirish punkti o'z faoliyatini boshladi. Ayni paytda bu tibbiyot punktida 4 nafar tibbiyot hamshirasi hamda katta hamshira ishlayapti. "Pistali" karyeri kengaytirilayotgani munosabati bilan ushbu punktga yana 5 nafar tibbiyot xodimi yuborilishi rejalashtirilmoqda.

Uchquduq, Zarafshon, Zafarobod va Nurobod tibbiy-sanitariya qismlari ham qo'shimcha yuqori texnologiyali asbob-uskunalar bilan ta'minlandi, binolarida joriy va kapital tamirlash ishlari bajarildi. Zarafshon shahridagi tibbiy-sanitariya qismi MRT, MSKT, mammograf, raqamli rentgen apparatlari bilan ta'minlanishi tufayli Zarafshon, Uchquduq shaharlari va Tomdi tumani aholisining gemodializ (sun'iy buyrak apparati) muolajasiga muhtoj qatlamining viloyat markaziga kelib-ketish qiyinchiliklariga chek qo'yildi. Zafarobod qo'rg'onidagi tibbiy sanitariya qismiga 2023-yilda olib kelingan laparoskopik uskuna yordamida o't tosh kasalligi bilan og'rigan bemorda yuqori texnologiyali jarrohlik amaliyoti a'lo darajada o'tkazildi.

Bo'limimiz va joylardagi tibbiy-sanitariya qismlari shifokorlari bundan buyon ham kasblariga sodiq qolib, kombinatning ko'pming kishilik ishchi-xizmatchilari, muhandis-texnik xodimlari, ularning farzandlari, mehnat faxriylarining sog'liklarini muhofaza qilish yo'lida bor bilim va imkoniyatlarini sarflaydilar.

**Alisher TO'QSANOV,**
**Tibbiy-sanitariya bo'limi boshlig'i.**

■ Tashabbus

# KITOBDAN YAXSHIROQ DO'ST YO'Q JAHONDA!

◄ Oxiri. Boshlanishi 1-betda

Eng quvonarlisi, yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, kombinat tomonidan nashr etilayotgan har bir kitobdan kutubxonalar, vazirlik va idoralar, oliy ta'lim va ilmiy muassasalar, olim va tadqiqotchilarga beg'araz homiylik sifatida tuhfa etilmoqda. Jumladan, "Справочник вредные вещества их классификация и общие требования безопасности" kitobi ham 77 ta oliy o'quv yurtlari, Fanlar akademiyasi va uning 12 ta bo'lim hamda institutlari, 17 ta kutubxonalar, 14 ta vazirlik, idora va korxonalar, shuningdek, olim va tadqiqotchilar, kombinatning har bir bo'linmalariga bepul tarqatildi.

Bugun kitob yaratish haqida gap ketganda, keyingi yillarda bu borada amalga oshirilgan ishlar haqida to'xtalib o'tish joizdir. Jumladan, "Buyuk ixtirolarning sehrli olami", "O'zbekistonda kon-metallurgiya tarixi", "Vaqt – umuminsoniy qadriyat", "Yangi istiqbollar sari", "Kosmoplanetar olam va yer jarayonlari haqida", "Yangilanayotgan O'zbekiston: Navoiy kon-metallurgiya kombinatining yangi tarixi", "Metall va meneral-larning shifobaxsh xususiyatlari", "История горной металлургии Узбекистана", "Strategy of the long-term development of the Kyzylkum region" va boshqa asarlar ilm-fan fidoiylarining ijod namunalaridir. Bu asarlar keng jamoatchilik, kitobxonlar ommasi tomonidan yuksak baholanib, katta ahamiyatga ega ekanligi e'tirof etilmoqda.




Shuningdek, keyingi yillarda chop etilgan "Kengliklar sururi", "Uyg'oq xotiralar", "Zomin ilhomlari", "Mehnatidan qadr topganlar" kabi to'plamlar, "Umr dovonlari", "Yillar mening taqdirimda", "Hayot chorrahalarida", "Umr solnomasi" va boshqa publitsistik asarlar ham jovonlardan munosib joy olgani tahsinga munosibdir. Bu borada barcha sara asarlar respublikamizdagi yetakchi noshirlik muassasalari bo'lgan "Sahhof", "Fan", "Muharrir", "Mashhur-Press", "Turon zamin ziyo", hattoki, Germaniyaning "Artem", Rossiyaning "Грифон" nashriyotlari bilan hamkorlikda tayyorlangani ularning sifatli, yuqori dizaynda nashr etilishiga mustahkam zamin yaratdi.

Misol uchun, O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi bilan birgalikda nashrga tayyorlangan va kombinat homiyligida chop etilgan "Zomin ilhomlari" "Kengliklar sururi", "Uyg'oq xotiralar" to'plamlarini olaylik! Taniqli yozuvchi va shoirlar bilan birga, kon-metallurgiya sohasida mehnat qilayotgan yosh havaskorlar ijodini o'zida jamlagan bu kitoblar yangi iste'dodlarni kashf etib, ular ijodiga yanada ilhom bag'ishladi.

Bu ishlarning ortida katta zahmat, mehnat yotganligini har qanday zukko o'quvchi yaxshi biladi. Chunki bu kabi kitoblar odamlarni faqat yaxshilikka yetaklaydi, bilimini oshirishga xizmat qiladi. Unutmaslik kerakki, har bir inson, ayniqsa, yoshlar kamolotida kitobdan yaxshiroq vosita yo'q va uning ta'sirchanligi ham shundadir. Shu o'rinda, Abdurahmon Jomiyning quyidagi misralari yodga tushadi:

*Kitobdan yaxshi do'st yo'q jahonda,*
*G'amxo'ring bo'lgay u g'amli zamonda.*
*U bilan qol tanho, hech bermas ozor,*
*Joningga yuz rohat beradi takror.*

Muxtasar aytganda, kitob chiqarish, ziyo tarqatish bundan buyon ham kombinat jamoasining bosh maqsadlaridan biri bo'lib qolaveradi.

**Abdumajid JO'RAYEV,**
**O'zbekiston Jurnalistlar uyushmasi a'zosi.**

■ Yangiliklar. Xabarlar.

# YIL YAKUNI HISOBOTI

**Navoiy kon-metallurgiya kombinatining matbuot anjumanlarini o'tkazish zalida Komplayens xizmati boshlig'i Rustam Avezov ishtirokida OAV vakillari uchun brifing tashkil etildi.**

Tadbir mavzusi kombinatda 2023-yilda korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha olib borilayotgan ishlar targ'iboti, kelib chiqishi mumkin bo'lgan korrupsion holatlarning oldini olish bo'yicha amalga oshirilgan ishlarga bag'ishlandi.

Ayni paytda respublikamizda bu illatga qarshi keskin kurash olib borilmoqda. Shu bilan birga, bunday salbiy holatlarning oldini olish maqsadida korxona va tashkilotlarda alohida xizmatlar tashkil etildi.

Jumladan, Navoiy kon-metallurgiya kombinatida ham 2021-yildan boshlab Ichki nazorat tuzilmasi – Komplaens xizmati tashkil etildi. Korrupsiya holatlarini barvaqt aniqlash va oldini olish, ularning sabab va sharoitlarini bartaraf etish, manfaatlar to'qnashuviga yo'l qo'ymaslik hamda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish choralarini ko'rishga bu tuzilma mas'ul etib belgilangan.

Mazkur xizmat tomonidan korrupsiyaga qarshi kurashish, ochiqlik va shaffoflikni ta'minlash borasida o'tgan yilda bir qator ishlar amalga oshirildi. Xususan, brifingda 2023-yilda 194 marotaba huquqiy targ'ibot va profilaktik tadbirlar o'tkazilgani, korrupsiyaga qarshi kurashishga oid rahbariyat murojaati qabul qilinib, ishchi-xodimlarga yetkazilgani, 2392 ta ichki idoraviy hujjatlar huquqiy ekspertizadan o'tkazilib, 157 ta ichki idoraviy hujjatlar normativ-huquqiy va ichki idoraviy hujjatlar talablariga muvofiqlashtirilgani, normativ-huquqiy va ichki idoraviy hujjatlarga o'zgartirishlar kiritish yuzasidan 21 ta taklif ishlab chiqilib, tegishli tartibda amaliyotga joriy etish uchun taqdim etilgani va boshqa muhim yo'nalishlarda amalga oshirilgan ishlar ta'kidlab o'tildi.

Shu bilan birga, ochiqlik va shaffoflikni ta'minlash borasida 68 ta banddan iborat chora-tadbirlar dasturi doirasida belgilangan vazifalar muddatlarida to'liq bajarilgani, kombinatning www.nkmk.uz rasmiy veb-saytida hamda ichki portalda "Korrupsiyaga qarshi kurashish" va "Ochiq ma'lumotlar" bo'limlari joriy etilgani, "Korrupsiyaga qarshi kurashish oyligi" va "Ochiq eshiklar kuni" tadbirlari yuqori saviyada o'tkazilgani ham aytib o'tildi.

Brifing so'ngida ommaviy axborot vositalari vakillari tomonidan berilgan savollarga batafsil javob berildi.

# TEJAMKORLIK SAMARASI

2023-yilda "Navoiy kon-metallurgiya kombinati" AJ transport sohasida ishlab chiqarish tannarxini kamaytirish va yoqilg'i-moylash materiallaridan oqilona foydalanishga yo'naltirilgan chora-tadbirlar rejasi bajarilishi izchil nazorat qilib borilgani yaxshi samara berdi. Avtotransport korxonalarining har bir uchastkasida yonilg'i-moylash materiallari sarfi qat'iy nazoratga olingani bois o'tgan yil yakunlariga ko'ra qariyb 171,5 milliard so'm iqtisod qilinishiga erishildi. 2023-yilda 6,5 million yo'lovchi tashildi. Ularga kombinatning 500 dan ortiq avtobusida xizmat ko'rsatildi.

# SAMARADORLIKNI KO'ZLAB

"Navoiy kon-metallurgiya kombinati" AJ boshqarmasi konchilik bo'limi va "Qizilqum" kon boshqarmasiga qarashli "Qoraqo'ton" koni mutaxassislari hamkorlikda iqtisodiy samaradorlikka erishish imkonini beradigan ratsionalizatorlik takliflarini ishlab chiqmoqdalar va joriy etmoqdalar. O'tgan yilning noyabr oyidan e'tiboran kon ishlab chiqarishida qo'llanilayotgan "Foydali qazilmani qazib olishda ma'dan yo'qotilishi miqdorini kamaytirish" mavzusidagi ratsionalizatorlik taklifi ana shu hamkorlikning natijasidir. Bunda burg'ilash va portlatish ishlari sxemasiga o'zgartirish kiritish, shpurning uzunligini 1,5 metrdan 2,5 metrga cho'zish tufayli qazib chiqarish jarayonida ma'dan yo'qotilishi miqdorini 50 foizdan 20 foizga tushirishga erishiladi. Ijodkor mutaxassislarning bu ratsionalizatorlik taklifi yil oxirigacha 1,5 milliard so'mdan ko'proq iqtisodiy samara berishi mo'ljallanmoqda.

# YANGI KON TEXNIKALARI

Yaqinda Navoiy kon-metallurgiya kombinatining "Muruntov" koniga keltirilgan "Komatsu RS4000-11" va "Hitachi EX-1200-7" gidravlikali ekskavatorlari hisobiga ushbu rusumdagi texnikalarning soni 12 taga yetdi. Shuningdek, bugun konda elektr tokida ishlaydigan, kovshining hajmi 8 kubometrdan 20 kubometrgacha bo'lgan 35 ta ekskavator ishlatilmoqda.

"Muruntov" konida elektr toki bilan ishlaydigan 22 ta va 13 ta gidravlikali burg'ilash mashinalari mavjud. Ulardan samarali foydalanish tufayli belgilangan topshiriqlar rejasi muddatida bajarilmoqda. Ayni kunlarda konda "Epiroc DM75E" rusumli zamonaviy gidravlikali burg'ilash qurilmasi foydalanishga topshirilish arafasida. Konda portlatish va ma'danlarni yuklashda 82 ta zamonaviy texnikalardan unumli foydalanilmoqda.

# O'QUV MASHG'ULOTI

Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universitetida "Erosti konlarining geomexanikasi" mavzusidagi o'quv davom etmoqda. Bir haftalik o'quv kursida "NKMK" AJ boshqarmasi, "Qizilqum" va Janubiy kon boshqarmalaridan 15 nafar mutaxassislar, ITTU (МИСиС) Olmaliq filialidan 1 nafar, Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universitetidan 2 nafar o'qituvchilar o'qitilmoqda.

"ВНИМИ" (Rossiya) kompaniyasi professorlari D.Sidorov va A.Jabkolar tomonidan olib borilayotgan mashg'ulotlar, hech shubhasiz, tinglovchilar bilim va ko'nikmalarini mustahkamlash, sohaga doir ko'nikmalarga ega bo'lishiga xizmat qiladi. Tinglovchilar malakaviy imtihonni muvaffaqiyatli topshirganidan so'ng ularga xalqaro sertifikat beriladi.

**"NKMK" AJ Matbuot xizmati.**

■ Новости

# С ВЫСОКИМИ ПОКАЗАТЕЛЯМИ

**Коллектив Геологоразведочной партии Научно-производственного центра «Геология урана и редких металлов» Государственного предприятия «Навоийуран» с хорошим настроением вступил в новый 2024 год. Этому способствовало завершение прошлого года с высокими показателями. Под чутким руководством начальника Анвара Махмудовича Худойназарова, коллектив ГРП годовой план выполнил на 120,2 процента.**

Важно отметить плодотворную работу начальника бурового участка Ш.И.Шамшиева. Он за короткий срок своей трудовой деятельности в данном коллективе завоевал профессиональный авторитет среди коллег. Совместно с мастерами Д.Турсунмуратовым, А.Боймуродовым, Б.Дустовым, А.Загитовым и М.Аширбековым они смогли дружно справиться со всеми сложностями, которые приходилось преодолевать в процессе работы.

В стороне не остались и другие службы, которые вносили свой вклад в общее дело. Необходимо отметить ежедневный кропотливый труд работников геологической службы, среднего звена, ремонтно-механического и энерго-механического участков, бесперебойную работу автоколонны ГРП.

За такой достойный труд Генеральный директор ГП «Навоийуран» направил коллективу Геологоразведочной партии «Благодарственное письмо», в котором были выражены самые тёплые пожелания: «... Нас всегда радуют достижения высококвалифицированных руководителей и специалистов, старательных и трудолюбивых людей, с честью выполняющих свои ответственные задачи. Столь высоких целей вы достигли в результате того, что полностью мобилизовали все свои возможности и опыт в производстве. Я уверен, что такие образцовые аспекты позволят вашему коллективу перевыполнить планы, установленные на 2024 год. А также повысят уверенность молодых специалистов в своих силах, побудят их работать над собой и добросовестно выполнять поставленные задачи ...».

Также решением администрации ГП «Навоийуран» электрогазосварщик Ш.Бердияров, слесарь по бурению и обслуживанию скважин О.Сайдуллаев, токарь Ш.Набиев, электромонтёры по ремонту и обслуживанию электрооборудования К.Каландаров и Ш.Мусурманов, водитель автомобиля Б.Хужакулов, слесарь по ремонту автомобилей Б.Розиков, машинист бульдозера И.Жахонгиров, моторист самоходной каратажной станции С.Ражабов, приготовитель глинистого раствора Б.Базаров поощрены денежным вознаграждением.

Руководителю и главным специалистам ГРП от ОПК-6 вручены ценные подарки.

В канун нового года одна буровая установка, находящаяся на участке «Ингичка» в г.Нурабад перевезена на территорию "Южный Букинай", и теперь в ГРП эксплуатируются пять буровых установок.

**Гульфия ВАЛИЕВА,**
**председатель ПК-18.**

**2023 год машинисты кранов ПО «НМЗ» завершили профессиональным состязанием. Они боролись за лидерство в конкурсе под названием «Профессионал года» в номинации «Лучший крановщик». К конкурсу допускались машинисты крана 4-6 разрядов в возрасте до 35 лет.**

# ОПРЕДЕЛЕН ЛУЧШИЙ КРАНОВЩИК ПО «НМЗ»

Программа конкурса предусматривала знание оборудования, правила соблюдения техники безопасности, умение быстро и грамотно определять браковочные показатели деталей и узлов крана. Состязание проходило в два этапа – теория и практика.

На первом этапе теоретических экзаменов 23 участника ответили на следующие вопросы: обязанности при приеме смены, браковка, назначение и устройство кранов и узлов, определение веса груза расчетом по заданным размерам, техника безопасности на рабочем месте, электробезопасность. Наибольшее количество баллов набрали Ш.Облокулов, Ш.Акмалов, Б.Эркинов, Ш.Ядгорова, А.Хусанов. Эта группа людей получила путевки на прохождение во второй этап.

Второй этап включал в себя подъем и перемещение груза на кране. Стропальщик подвешивал на крюк ведро с водой, машинист крана перемещал и опускал ведро в специальное кольцо. Затем при помощи стропальщика на крюк крана цеплялся груз с плоским дном. Крановщику необходимо было закрыть спичечный коробок с 5-ю делениями. За каждое закрытое деление начислялся один балл.

За все задания конкурса профессионального мастерства наивысший результат показал крановщик ремонтно-механического цеха Ш.Облокулов, доказавший свою профессиональность и компетентность в выбранном деле!

**Ситора ЯТИМОВА.**

■ Профсоюзная жизнь

**В Навоийском горно-металлургическом комбинате Совет профсоюза объединяет 7 объединённых профсоюзных комитетов и 45 первичных организаций подразделений, а это более 80 тысяч членов. О работе председателя одного из них – профсоюзного комитета №20 автобазы №3 АО «НГМК» мы сегодня расскажем.**



# ПРЕДСЕДАТЕЛЬ ПРОФКОМА – ЕГО БУДНИ И ПРАЗДНИКИ

Дильбар Ханисовна Файзиева трудится на автобазе с 1993 года, уже более 30 лет: сначала работала инспектором в отделе кадров, в настоящее время - распределителем работ. Из них 18 лет она является неосвобождённым председателем ПК-20. Иными словами - её 6 раз всем коллективом автобазы, а это 395 человек, единодушно и единогласно избирали на эту должность.

- Вначале не знала, с какого конца приступить к возложенным профсоюзным обязанностям, - вспоминает Дильбар Ханисовна. – Большую практическую и методическую помощь тогда оказали опытные работники Совета профсоюза НГМК, за что я им очень благодарна. И сейчас их помощь всегда кстати. На автобазе у меня тоже есть помощники в данном направлении - члены нашей профсоюзной ячейки Нодир Мамадияров, Сурен Мамаев, Сардор Хамраев, Шахзод Исломов. Это энергичные и мыслящие по-новому ребята. Все вместе мы помогаем, организуем, защищаем наших коллег…

Надо сказать, что работа председателя первичной профсоюзной организации крайне сложная, требующая терпения, знания целого ряда законов, в том числе трудового кодекса и статей Коллективного договора, прав трудящихся и других вопросов. Словом, она охватывает различные стороны жизни коллектива.

Коллектив автобазы в основном мужской, а мужчины, как правило, не всегда охотно делятся своими заботами. Но Дильбар Ханисовне, человеку с большим жизненным опытом, коммуникабельной, сопереживающей, отзывчивой, удаётся их разговорить, чтобы они поделились своими трудностями. Поэтому она знает не только ситуацию на рабочих местах, но и семейные обстоятельства работников автобазы, их радости и проблемы, искренне сопереживает, и пытается им помочь. Для каждого коллеги она находит нужные слова и совет, не жалеет времени на задушевную беседу. Кого-то настоятельно убеждает съездить всей семьёй в замечательные здравницы, пансионат или базу отдыха НГМК. Тогда и супруга ненадолго освободится от домашних забот, и дети порезвятся, и отношения в семье окрепнут. Благо путёвки всегда есть в наличии. Некоторые соглашаются нехотя, а потом от души благодарят за совет, и после таких слов понимаешь, что профсоюз работает не зря.

Конечно, ПК-20 не реализует какие-то грандиозные проекты, крупномасштабные дела. Но гораздо важнее помогать людям в повседневной жизни. К примеру, в своих заявлениях работники просят у профсоюза помощь на лечение или медицинское обследование в клиниках страны, выделение места в общежитии, путёвки для оздоровления престарелых родителей в санаториях комбината и т.п. Также часто приходят за консультацией, как повысить разряд, квалификацию, категорию классности, как написать то или иное заявление. Молодёжь хочет учиться, получать образование, и не знает куда идти, с какими документами. В каждом вопросе председатель ПК-20 старается грамотно проконсультировать человека, при необходимости подключить более компетентных специалистов.

На первый взгляд, ничего особенного. Но ведь иногда может показаться, что проблемы других не так остры, а для человека они – непреодолимая стена. И пробить её одному не хватит сил. А сообща, с помощью Дильбар Ханисовны, с помощью профкома, решить проблему легче.

Не утихает в ПК-20 и забота о пенсионерах автобазы.

- Наших ветеранов труда с группой молодых коллег мы навещаем часто, - говорит Дильбар Ханисовна. – Не только приносим продукты, но и стараемся помочь по хозяйству – кому-то крышу подлатать, кому-то побелить забор или стены, кому-то что-то починить, кому-то просто хочется пообщаться и т.д. Для многих наших пенсионеров поддержка и забота профкома в ситуации, ещё вчера казавшейся неразрешимой, оказывается очень своевременной и неожиданной. Об этих визитах и благих делах мы рассказываем нашим работникам, и водители уходят в рейс с хорошим настроением. А также наших ветеранов, отмечающих юбилейную дату со дня рождения, мы приглашаем на наши часы духовности вместе с членами семьи, и торжественно поздравляем, надеваем на них чапаны, дарим подарки. Это радость не только для них, но и для нас, и у молодёжи растёт уверенность в завтрашнем дне, что у нас помнят и заботятся обо всех нынешних и бывших коллегах. У нас никто не остаётся один на один со своими проблемами или горем – коллектив всегда рядом, а профсоюз – это та сила, которая защитит и поддержит.

Многие вопросы Д.Х.Файзиева решает с начальником автобазы №3 Р.Р.Турсуновым, который всегда идёт навстречу инициативе профсоюзного лидера. К примеру, понимая, что водителям, по роду деятельности, необходимы активные физические нагрузки, совместными усилиями организовали спортивный зал для водителей. При финансовой поддержке Совета профсоюза НГМК установили там три тренажёра, теннисный стол, приобрели мячи и скакалки. На территории ремонтной базы автобазы создали небольшое подсобное хозяйство. Еженедельно по пятницам проводятся часы духовности и просветительства, где руководство автобазы, юрисконсульт совместно с председателем ПК-20 информируют работников о наиболее важных и интересных политических, общественных, культурных событиях страны и мира, текущих и предстоящих делах коллектива НГМК и автобазы, отвечают на вопросы трудящихся, консультируют по насущным вопросам. Сообща организовывают экскурсии по историческим городам Узбекистана, семейные выезды на природу. Кроме того, сборные команды работников автобазы принимают активное участие в культурных и спортивных мероприятиях комбината, занимая призовые места. Всех отличившихся в автобазе торжественно поздравляют и вручают им благодарности и памятные подарки. А на церемонию вручения почётных грамот работникам автобазы приглашают семьи виновников торжества.

Часть водителей автобазы, в основном водители автобусов для перевозки людей, трудятся на рудниках комбината, которые по большей части расположены на пустынных территориях. Забота руководства и ПК-20 – создание для них соответствующих условий для труда и отдыха. Так, для своих работников на руднике «Каракутан» они оборудовали двухкомнатный жилой контейнер, оснащённый всей необходимой бытовой техникой и мебелью. В настоящее время готовится подобное помещение для водителей на руднике «Пистали». На других участках автобазы для работников охраны, контрольных механиков также организованы помещения, оборудованные кондиционерами, телевизорами, холодильниками, микроволновыми печами, электрочайниками, кулерами с питьевой водой. Для водителей обустроены комнаты приёма пищи.

Словом, если администрация и профком работают рука об руку над решением производственных и социальных вопросов, то выигрывают все члены трудового коллектива.

- Мне нравится профсоюзная деятельность, - говорит Д.Х.Файзиева. - Тем более, что со мной рядом мои коллеги – творческие, неравнодушные и ответственные. Со мной рядом – понимающий, мудрый руководитель. Профсоюзная работа научила меня понимать своих коллег, вникать в их проблемы, находить пути выхода из трудных ситуаций. Я рада, что деятельность профсоюзных организаций оценило по достоинству руководство страны, и теперь у нас есть свой профессиональный праздник. Но профсоюзная работа в любом случае затихать не должна.

В том, что в автобазе №3 создана доброжелательная обстановка сотрудничества и творчества, есть огромная заслуга профкома. Ведь работники чувствуют поддержку, у них есть уверенность в том, что рядом есть заботливые, внимательные люди и сильное плечо в лице руководства автобазы, и в лице профсоюзного лидера - Дильбар Ханисовны Файзиевой, на которых можно рассчитывать.

**Насиба ШАМУРАТОВА.**

■ Актуальная тема

# КОРРУПЦИЯ – ПРЕПЯТСТВИЕ ПРОГРЕССУ

**Коррупционные деяния способны нарушить механизм рыночной конкуренции, привести к развитию организованной преступности, подорвать доверие общества к органам власти. Противодействие этому социальному злу - важнейшая задача.**

В Республике Узбекистан основными направлениями государственной политики в области противодействия коррупции являются: формирование в обществе непримиримого отношения к любым её проявлениям; реализация мер по предупреждению коррупции во всех сферах жизнедеятельности государства и общества, своевременное выявление, пресечение коррупционных правонарушений, устранение их причин и условий, обеспечение принципа неотвратимости ответственности.

В стране сформированы институционально-правовые основы обеспечения законности и правопорядка, создана эффективная система борьбы с коррупцией. Приняты законы “О противодействии коррупции”, “Об административных процедурах”, “Об открытости деятельности органов государственной власти и управления”, “О государственной гражданской службе”. Действуют национальный совет по противодействию коррупции, соответствующее Агентство. В разрезе министерств и ведомств проводится “диагностика” на предмет устранения коррупционных факторов, на основе которой вносятся подлежащие обязательному рассмотрению представления для принятия неотложных мер.

Важное место в предупреждении коррупции занимает внедрение в органах государственного и хозяйственного управления внутреннего антикоррупционного контроля (“комплаенс-контроль”). Цель - развитие комплексной системы раннего выявления и предотвращения коррупционных факторов, что соответствует требованиям международного стандарта.

Сегодня в борьбу с коррупцией в стране вовлечены практически все государственные органы, в том числе Министерство внутренних дел. В соответствии со ст. 11 Закона “О противодействии коррупции”, МВД Узбекистана участвует в реализации государственных и иных программ в области противодействия коррупции; осуществляет оперативно-розыскную деятельность, доследственную проверку, дознание и предварительное следствие по преступлениям, связанным с коррупцией; осуществляет сбор и анализ информации о состоянии и результатах противодействия коррупции, предоставляет информацию соответствующим органам; рассматривает обращения физических и юридических лиц по фактам коррупции, принимает меры по восстановлению нарушенных прав; участвует в деятельности по правовой пропаганде, направленной на повышение правового сознания и правовой культуры населения и др.

В целях обеспечения прозрачности процессов принятия решений в государственных органах внедрена электронная информационная система, создана открытая система отбора кадров. Открытость и прозрачность – обязательный принцип в деятельности органов внутренних дел. В соответствии с законодательством физические и юридические лица имеют право в установленном порядке получать достоверную информацию о деятельности ОВД, а также непосредственно затрагивающую права и законные интересы физических и юридических лиц, за исключением информации, доступ к которой ограничен Законом.

Согласно Закону “О противодействии коррупции” в республике осуществляются целенаправленные меры по своевременному выявлению и пресечению коррупционных правонарушений, обеспечению принципа неотвратимости ответственности. В их числе: организация эффективной работы органов, непосредственно осуществляющих деятельность по противодействию коррупции; повышение уровня технического обеспечения правоохранительных органов, внедрение в их работу информационно-коммуникационных технологий; обеспечение взаимодействия между государственными органами, осуществляющими деятельность по противодействию коррупции; защита лиц, сообщающих информацию о коррупционных правонарушениях и др.

Своевременному выявлению коррупционных схем, безусловно, способствует гражданская активность людей. В этом аспекте Постановление Кабинета Министров Республики Узбекистан от 31 декабря 2020 г. имеет особое значение. Документом утверждено Положение “О порядке стимулирования лиц, сообщивших о коррупционных правонарушениях или оказавших иным образом содействие в борьбе с коррупцией”.

Реализация основных направлений государственной политики в области противодействия коррупции позволила достичь положительных результатов. Об этом свидетельствуют исследования неправительственной организации “Transparency international». Согласно Индексу восприятия коррупции (уровень коррупции в государстве, работа, проделанная правительством по борьбе с ней) по состоянию на 2022 год Узбекистан в рейтинге стран мира (180 стран) за пятилетний срок поднялся на 32 пункта.

Борьба с коррупцией, как серьёзным препятствием на пути реформ, продолжается, расширяя масштабы, ибо это залог роста экономики, социальной защищённости граждан, достижения поставленных благородных целей. Свидетельством тому являются меры, предусмотренные Указом Президента «О мерах по дальнейшему совершенствованию системы противодействия коррупции и повышению эффективности системы общественного контроля за деятельностью государственных органов и организаций» от 27 ноября 2023 г.

Как подчеркнул глава государства, «Люди ждут от нас новых практических дел. Миллионы соотечественников… сегодня смотрят на нас с большими надеждами. Оправдать их доверие, закрепить достижения новыми результатами должно стать не только нашей первоочередной задачей, но и человеческим долгом».

**Саёра САИДРАХМАНОВА,**
**старший эксперт-криминалист**
**ОВД НГМК УВД Навоийской области,**
**подполковник.**

■ Shaxsiy mulohaza

# TAASSUROTLARIM

## ARMIYA

Onalik instinkti qizlarda bolalikdan ko‘rinadi: birinchi o‘yinchog‘i qo‘g‘irchoq, tili chiqib yodlagan ilk qo‘shig‘i alla bo‘ladi. Mittigina yuragida onalikning ulkan orzusini opichlab katta bo‘ladi. Sho‘x, qaqajon, mehribon, ohudek hurkovich bo‘ladi bu qizjonlar! O‘g‘illar esa aksincha, kichiklikdan har bir harakatlarida qat’iyat va jasurlik chaqnaydi! O‘yinchoq mashinalar, tanklar, askarlar – tug‘ilgan kunlarida kutadigan sevimli sovg‘alaridir. Orzulari ham o‘xshash – harbiy bo‘lish!

Vaqt yugurik. Kechagina o‘yinchoq avtomat o‘ynab, “Soldat bo‘laman!”, degan bolam bugun ulg‘ayib yigit bo‘libdi. Uni harbiy xizmatga chaqirishdi. O‘sha paytda ona sifatidagi kechinmalarim men kabi farzandini armiyaga kuzatgan onalarga tanish. Xavotir, ustiyu ovqat-ozig‘ini o‘ylab, ikki-uch kungacha ko‘zimga uyqu kelmadi. Otamning tanbehlaridan biroz o‘zimga keldim: “O‘g‘ling o‘zimizni Vatanimizda-ku, qizim!”

Beixtiyor, bolaligim yodimga tushadi. Ko‘pchilikning uyida ko‘zim tushgani – sobiq Sovet Ittifoqi davrida harbiy xizmatda bo‘lganlarning armiya gashti muhrlangan albomlari bo‘lardi. Usti baxmal mato bilan qoplangan, tillorang to‘rtta o‘q yordamida biriktirilgan, albom. Suratlar, ajib rassomlik hajvlari, ko‘z qorachig‘idek asralgan xatlar... Sovet armiyasi, deganda Hojiboy Tojiboyevning yumorlarini eslamay iloj yo‘q: Rossiyaning shimoliy hududlarida – ayozli makonlarda quyoshli O‘zbekistondan harbiy xizmatga borgan yigitlarning ahvoli, tamaki qoldig‘iga muhtoj soldatlar, non ushog‘i uchun qattiq jazolangan harbiylar haqidagi achchiq-kulgili hazillar... Ha, o‘sha davrlar ulkan sarhadda yastangan sobiq Ittifoqning Qizil armiyasi turli millat yigitlarining irodasini obdon sinagan. Ayniqsa, muqaddas dinimiz, tilimiz, qadriyatlarimiz borasidagi og‘riqli holatlarini o‘ylasam, mustaqillikning naqadar oliy ne’mat ekanini, davlat tilimizning ahamiyatini tushunganday bo‘laman. Hozirgi yoshlar-ku uddaburon – tegirmonga tushsa o‘zi bilan birga bir qop un yelkalab chiqadi, biram o‘ziga ishongan! Menimcha, o‘z ona tuprog‘i hududida xizmat qilayotgani yigitga shunaqa kuch va ishonch bersa kerak! Yuragimning taskini ham shu so‘z bo‘ldi, qalban, sobiq Ittifoq davrida bolalarini o‘zga diyorlarga harbiyga yuborgan onajonlarning sabr va matonatlariga tasanno aytdim.

## VATANGA QASAM

Qasamyod qilish har bir yigit uchun sharaf! Har harfida Vatanga sadoqatni ifodalovchi so‘zlarga uyg‘un bo‘lib jaranglayotgan o‘ktam ovozdan qalb titraydi. Bu kabi shonli bayramda ishtirok etish har bir ota-ona uchun yuksak iftixordir. Atrofimda xuddi men kabi onalar alplarining bo‘ylariga quvonib, ruhiyatlari sel bo‘lib, farzandlarining qasamyodini tinglamoqdalar. Yigitlik viqori qasamyodga, qasamyodning salobati yigitlikka uyqashib ketadi. Alvon biretlilarning harbiy-taktik mashqlaridan tomirlarga shijoat inadi. Qanday go‘zal, ulug‘vor manzara! Ularni kuzata turib, beixtiyor, yetti yoshlik Hakimbek o‘n to‘rt botmonlik kamonni ko‘tarib Asqar tog‘ining qoyasini uchirganini va shundan so‘ng Alpomish nomini olgani haqida o‘qiganlarimni eslayman. Eslaymanu ko‘z oldimda dunyo “Big uzbek” deya e’tirof etayotgan Bahodir Jalolov gavdalanadi. Surxonning pahlavonlari suv ichgan tuproqda ulg‘aygan o‘ktam bahodir! “Alpomish bobomning bolasi!”, deya, g‘ururlanib qo‘yaman, bolamning ko‘z-qoshlarini unga o‘xshatib, quvonib qo‘yaman! Qasamyod qilayotgan bahodirlarga qaraymanu “Jaloliddinlarni, Temurbeku Zahiriddinlarni asragin”, deya pichirlayman.

## ONALAR ISTAGI

Yangi uyimizga ko‘char paytimiz, ta’mirlash ishlari vaqtida hovlimizda bir mushuk paydo bo‘ldi. Burunchasi, oyoqchalari qora, tanasi va boshi oppoq, ko‘zlari miltillagan biram chiroyli bu jonivorning tashrifidan ayniqsa, qizim xursand bo‘ldi. O‘tgan yilgi Yangi yilni u bilan birga kutdik. Yozga chiqib, uning homilador ekanini bilib qolib, yanayam g‘amxo‘rligimiz ortdi, biroz ko‘rinmay qolsa ham xavotirimiz kuchayadi. Ayni jazirama kunlarda ikki kun ko‘rinmaganiga ko‘zimiz ko‘chada qoldi. Bir kun ishdan qaytsam, yerdan bir yarim-ikki metr balandlikdagi derazamiz raxida og‘zida bir nima bilan turibdi. Tishlagani avvaliga sichqonga o‘xshab ko‘rindi, yaxshiroq e’tibor bersam, ola-bula rangli, tuklari ukparday mushuk bola! “Demak, bechora ikki kun to‘lg‘oq azobini yeb uyga kelmagan”, xayolimdan shu fikr chaqmoqdek o‘tdi. Oniy lahzada qadrdonimizning topilganiga qanchalik xursand bo‘lgan bo‘lsam, bolasi yerga tushib ketmasin, deya boshimdan qushim uchib yelim tog‘ora bilan tashqariga otildim. Ko‘chaga yemak-suvini oldiga qo‘yib, tog‘oraga joylashtirib uyga kirsam, bolasini ko‘tarib yana deraza raxiga chiqib olibdi. Xumpari bilan joylab kirdim degunimcha u yana og‘zida bolasi bilan oyna oldida paydo bo‘ladi. Bu holat bir necha marta takrorlanganidan keyin tushundimki, u ko‘chada, yoz jaziramasida qolmoqchi emas, avval bir o‘zi edi, endi zimmasida bolalarining mas’uliyati, hayoti xavfsizligi bor! Oynani ochdim, ko‘chadagi yoz hovuridan farqli ravishda uyda konditsionerning salqingina shabadasi kezardi. Mushuk bolasini ohista tishlagancha uyning to‘riga qarab yugurib ketdi – onalik instinkti uni mittilari uchun xavfsiz, tinch va qulay joyni tanlashga buyurgandi! Tilsiz jonivorning onalik tafakkuridan hayratda qoldim.

## UCHQUDUQDAGI HARBIY QISMDA

“Vatanparvarlik oyligi” doirasida Mudofaa vazirligiga qarashli Uchquduq tumanida joylashgan harbiy qismda bo‘ldim. “Askar onalarini sharaflaymiz!” shiori ostida o‘tkazilgan tadbirda qismda muddatli harbiy xizmatni o‘tayotgan askarlar va ularning oila a’zolari o‘rtasida onlayn-muloqot uchrashuvi tashkil etildi. Tadbirga alohida e’tibor bilan tayyorgarlik ko‘rilgani sezilib turar, qism hududida bayram shukuhi kezardi. Ota-onalar va ularning farzandlari joylashgan studiyalar orasidagi masofa olisligi va boshqa-boshqa viloyatda bo‘lishiga qaramay, diydor quvonchi askarlarni ham, yaqinlarini ham bir joyga jamlagandek bo‘ldi, Samarqand va Uchquduq orasida diydor ko‘prigi paydo bo‘ldi go‘yo! Onalarning bu paytdagi hayajonini, bolalarining hislarini yozib ta’rif etishga shoir qalami ojiz! Beixtiyor ularning holati menga ham ko‘chadi: goh ko‘zimda yosh aylanib, goh ko‘ksim quvonchga to‘lib qoladi.

## HAYOTBAXSH TINCHLIK

Kichikligimizdan dasturxon ustida odob saqlashga va chiroyli duo qilishga o‘rgatishgan. Shu sabab dasturxonimiz go‘zal duolarga to‘liq bo‘lgan. Bundan tashqari, yurgan yo‘llarimiz – pichirlab qilgan niyatlarimizning shohidi! Xuddi, yuqorida tilsiz, tafakkursiz deb bilganimiz bir jonivor bolasi uchun tinch va xavfsiz makon tanlaganidek, biz onalar uchun ham tinchlikning qadri ulug‘! Tilagimizning sarasi ham tinchlikning bardavomligini so‘rash. Zero, tinchlik bor ekan, yerga umid-la suqilgan nihollar ko‘kka bo‘y cho‘zadi, ulug‘vor niyatlar, maqsadlar ushaladi, har sohada evrilish, yuksalish bo‘ladi. Insonning insondek yashamog‘i uchun tinchlik naqadar zarur! Qanday hayotbaxshsan, ulug‘im tinchlik!

**Nilufar MUYDINOVA,**
**SHKB mutaxassisi.**

■ “Navoiyuran” davlat korxonasida

**“Navoiyuran” davlat korxonasi tomonidan tabiiy uran va ammoniy perrenati mahsulotini Yaponiya, Hindiston, Kanada, Janubiy Koreya, Rossiya va Avstriya davlatlariga eksport qilinishi bo‘yicha tegishli shartnomalar imzolangan. Shu maqsadda, korxona tashqi iqtisodiy faoliyat ishtirokchisi sifatida Navoiy viloyati bojxona boshqarmasi va uning tasarrufidagi bojxona postlari bilan doimiy hamkorlik aloqalarini yo‘lga qo‘ygan.**

# EKSPORT GEOGRAFIYASI KENGAYMOQDA

“Tayyor mahsulotlar eksporti amaldagi qonunchilik asosida bojxona rasmiylashtiruvidan o‘tkazilmoqda. Korxona eksport operatsiyalarini amalga oshirishda Navoiy viloyat bojxona boshqarmasi masofaviy elektron deklaratsiyalash bojxona posti, “Tinchlik” tashqi iqtisodiy faoliyat posti bilan bevosita hamkorlikda ishlar olib bormoqda. Jumladan, o‘tgan 2023-yil davomida jami bo‘lib 33 partiya uran oksidi va ammoniy perrenati tayyor mahsulotlari eksport jarayonida bojxona rasmiylashtiruvidan o‘tkazildi. Eksport qilinayotgan tayyor mahsulotni qadoqlashda ishlatiladigan yog‘och taxtalarni zararsizlantirilganligi to‘g‘risida viloyat o‘simliklar karantini va himoyasi boshqarmasi bilan hamkorlikda 297 ta fitosanitar va muvofiqlik sertifikatlar rasmiylashtirildi”, - deydi “Navoiyuran” DK bojxona yuklarini deklaratsiyalash va sertifikatlashtirish xizmati boshlig‘i Xasan Muxtarov.

Korxonada 2023-yil mahsulotlar eksporti rejasi 126 foizga bajarildi va 2022-yilga nisbatan o‘sish sur’ati 133 foizni tashkil etdi. Joriy 2024-yil prognoziga ko‘ra mahsulotlar eksportini to‘liq bajarish va 2023-yilga nisbatan o‘sish sur’atini 110 foizga ta’minlash rejalashtirilmoqda.

“Bugungi kunda bojxona tizimida tadbirkorlik subyektlari va tashqi iqtisodiy faoliyat ishtirokchilari uchun bir qator yengilliklar va qulayliklar yaratilib kelinmoqda. Bojxona rasmiylashtiruvi va bojxona nazorati jarayonlari deyarli yuz foiz elektronlashtirilmoqda. Masalan, hozirgi kunda 60 ga yaqin dasturlar mavjud va 30 ga yaqin interaktiv xizmatlardan foydalanib kelinmoqda. Xususan, Navoiy viloyati bojxona boshqarmasi masofaviy elektron deklaratsiyalash bojxona postiga taqdim etilayotgan barcha bojxona yuk deklaratsiyalari elektron tarzda taqdim etilib, qisqa muddatlardan rasmiylashtirilmoqda”, – deydi Navoiy viloyat bojxona boshqarmasi masofaviy elektron deklaratsiyalash bojxona posti katta inspektori Lola Xalilova.

O‘zbekiston Respublikasi sertifikatlash milliy tizimining “Sanoat xavfsizligi” DM sertifikatlashtirish organi bilan hamkorlikda korxonada ishlab chiqarilgan mahsulot uchun muvofiqlik sertifikatlari rasmiylashtirib borilmoqda. O‘tgan 2023-yil davomida 28 ta bojxona yuk deklaratsiyasi qayta rasmiylashtiruvdan o‘tkazildi.

**“Navoiyuran” DK Axborot PR xizmati.**

## Ijod

# Hayrat

*(Hikoya)*

Bu voqealarning bo‘lganiga ham ancha bo‘ldi. U paytlarda yosh edik. Ko‘rganlarimiz qanchalik hayratlanarli bo‘lsa, shunchalik oddiy holatdek ham edi. Bobom rahmatli kunda-kunora dashtdan o‘zining yaxshi ko‘rgan eshagi bilan yovshon (bizning qishloqda uni “juvshon” deyishadi) chopib kelardi. Yovshon aravaga chunonam ustamonlik bilan bosilardiki, naq uch metrcha kelardi. Bu manzarani esga olishim, u haqda hayrat bilan eslashimga sabab bor. Birinchidan, bobom ancha keksayib qolgan edi. Ikkinchidan, bir oyoqlari biroz oqsardi. Uchinchidan esa, bu holatdan oradan yigirma yilcha vaqt o‘tib endi hayratlanayapman. Bobomga bu kuch qay yerdan keldi, aravaning ustiga qanday chiqib tushdi?! Savollar ko‘p. Hali bu umrning arzimasgina qismini bosib o‘tgan bo‘lsakda, ko‘p hayratli voqealarni ko‘rdik, biz hayratlanmaganlarimiz esa kundan kun texnikaviy taraqqiyot sari odimlayotgan dunyoning oldida o‘zimizning ojizligimizni ko‘rsatmaslik uchun bir bahonadir xolos.

Yana voqealarni bobomning hayoti bilan bog‘layman. Chunki u kishining hayot yo‘li men uchun hayratlanarli. Sababi oddiy – u faqat mehnat qilardi. Hayratlanarli narsalar esa mehnatning oqibatidan keladi.

90-yillarning boshi, o‘zim tug‘ilib o‘sgan Mo‘ydin qishlog‘ining issiq saratoni – yoz. Yoz biz uchun haqiqiy sevimli fasllardan biri edi. Chunki bobomning bog‘laridagi meva-chevalar g‘arq pishadigan davr. Ko‘pincha bobomning yonlarida u kishining ishlashlarini kuzatardim. Kechagidek aniq esimda. O‘zining kichikkina ko‘rpachasida o‘tirib olib tokni xomtok qilayotganlari. Nima uchundir o‘sha davrlarni sog‘inaman. Sababi o‘sha davrning odamlari boshqacha edi. O‘zgacha mehr-oqibat, o‘zgacha samimiylik bor edi. Hozir ham undanda yuksakroq mehr og‘ushidamiz, biroq hayratlanarli jihati ularning hammasini moddiy manfaat bosib ketayotgandek. Hamma tirikchilik g‘amida o‘zini o‘tga-cho‘qqa uradi. Yonimizdagi odam bilan ishimiz yo‘q. Bejiz hayrat haqida gapirib, uni bobomning hayoti bilan bog‘lamadim. Sababi oldinlari ham odamlar mehnat qilishgan, lekin mehrni, oqibatni ham unutishmagan. Bir paytlar bir ota-onadan pul olib maktabga qatnagan aka-uka vaqti kelib pulga talashsa hech kim hayratlanmayapti. Qizi otasiga sevgan yigiti borligini aytsa, OTA hayratlanmayapti. Qo‘shni yigit o‘z onasini tilanchilikka majbur qilsa, yon QO‘ShNI hayratlanmayapti. Achinarlisi, xorij seriali qahramonlari bir qizga talashib-tortishib qolsa HAMMA hayratlanadi. Eng hayratlanarlisi, hamma joy hayratga to‘la-yu, lekin bu narsalardan hech bir ODAM hayratlanmayapti. Chunki u ODAMning o‘z hayoti, o‘z yo‘li va o‘zining hayratlanadigan narsalari bor. Vaqt o‘tishi bilan ruhiy jihatdan ojizlashib borayapmiz”.

- Dadasi, ovqatingiz sovib qoldi!

- Hozir!

“Men hozir choy ichishga ketayapman. Kundaligimni qolgan joyidan keyinroq davom ettiraman”.

Farrux kundaligiga shunday deb yozdi-yu, dasturxon yoniga shoshildi.

- Ha, buncha ishtiyoq bilan nimalarni yozayapsiz?, - kelishi bilan Farruxni savolga tutdi xotini.

- O‘zim, shunchaki, har zamonda u-bu narsa yozgim keladi. Shularni qog‘ozga qoralab qo‘ymasam, yodimdan ko‘tarilib ketadi.

- Dadasi, shu yozuvchilikni qay yerdan ham o‘rgangansiz-a? Undan ko‘ra tuzukroq joyga boshliq bo‘maysizmi yoki savdo-sotiq bilan shug‘ullanmaysizmi? Yozuvchilik bilan oila boqib bo‘larkanmi? Hali ro‘zg‘orda u kam, hali bu kam. Ikki kundan keyin uyimizning ijara pulini to‘lashimiz kerak!

- Bo‘ldimi, gapirib bo‘ldingmi? – Farrux xotinining doimiy diy-diyolariga o‘rganib qolgan bo‘lsada, sabrli bo‘lishga intiladi. Yana doimgidek vazminlik bilan gapirdi u.

- Yo‘q, gapirib bo‘lmadim. Yo tuzukroq ish toping, yo...

-Nima yo...? Yoki bo‘lmasa sening javobingni beray, shundaymi? Qanchalik og‘ir bo‘lmasin, Farrux bu gapni aytishga majbur bo‘ldi. Chunki xotini baribir shu gapni aytardi.

- ....

- Hali hammasi yaxshi bo‘ladi. Farzandlarimiz katta bo‘lsin, qanotimiz bo‘lib topish-tutushimiz ham yaxshi bo‘ladi. Sen ham ishlaysan, men ham bir nechta joyda ishlashga harakat qilaman. Faqat sabr qilish kerak.

- E, sabrim ham, boshqasi ham to‘ldi, - o‘ziga yarashmagan harakatlar bilan peshonasini tirishtirib o‘zini xafa bo‘lganga soldi xotini.

- Bor kirib yot, ana kichkinang ham uyg‘onib ketdi bizning shovqinimizdan.

Farruxning xotini narigi xonaga kirib ketgan bo‘lsada, ovozi tinmas, bir nimalardan norozi bo‘lib, hayotni tinimsiz la’natlardi. Farrux esa bosh chayqagancha, xotinining qiliqlaridan biroz xafa bo‘lib, odatdagidek o‘zining yozuv stoliga o‘tirdi va sevimli dardkashi kundalik daftarini ochdi.

“Ko‘rdingmi hayot, bizga hamma narsani ulashasanu, senga la’nat o‘qiymiz. Senda yashaymiz-u, sening yuzingga tupiramiz. Sendan bahramand bo‘lamiz-u, sendan bir umr norozi bo‘lib o‘tib ketamiz. Aziz o‘quvchim, men bejiz hayot haqida xayol suramiz deb boshlamadim o‘z kundaligimni. Sababi ham shunda edi. Hayotning bor go‘zalligini yaxshi yashashda deb bilamiz. Yaxshi yashashni esa, hamma narsaning muhayyoligida deb bilamiz. Balki shundaydir. Axir hayotning o‘zi odamlarni shunday o‘ylashga, shunday yashashga majbur qilmoqda. Bir kun moddiyatni (hayot g‘am tashvishlarini, tirikchilikni) o‘ylamasak, ikkinchi kun dunyoga jar solayotganimiz ma’naviyat haqida eshitishga sabrimiz chidamay qolayapti. Hayot olganniki, yeganniki bo‘layapti. Yana senga bezbetlarcha “hayot juda beshafqat” deb qo‘yamiz. Sen beshafqat bo‘lganingda menga shunday ne’mat - oq qog‘ozni dardkash bilishdek ne’matni hadya qilarmiding, ey hayot!!!

Bizning eng katta kamchiligimiz hayotni sevmaymiz. Hayotni sevish bu mol dunyoni, o‘tkinchi hoyu-havaslarni sevish degani emas. Bu – hayotda haqiqiy inson bo‘lib, birovga nafing tegib, yaqinlaringni sevib yashashdir. Kundaligimning “Taajjub” sahifasida yozganim onaxon ham uning o‘g‘li ham shu hayotda yashapti, “Hayrat” sahifasidagi mening bobom ham shu hayotda yashab o‘tdilar (xudo rahmatiga olgan bo‘lsin), hozir hikoya qilmoqchi bo‘lganim qahramonlar ham shu hayotning odamlari. Hayotning go‘zalligi shundaki, unda hamma yashaydi, o‘zining rizqu nasibasini teradi.”

- Ertaga bozordan kartoshka-piyoz olib keling, hech narsa qolmapti uyda! – xotinining gapi Farruxning xayollarini bo‘ldi.

- Bo‘pti, olib kelaman. Shuni ertaga aytsang bo‘lmasmidi, xayolimni bo‘lding.

- E, xayolingiz bo‘linmaganda bir nimani qoyillatib yozarmidingiz. Koshki bir-ikki so‘m foyda keltirsa yozgan narsangiz.

- Xotin, shunaqa gaplarni gapirganing uchun ham mening yozganlarimda ma’no bor. Agar sen bunchalik fe’li tor bo‘lmaganingda, balki men hech narsa yozmasmidim, - hazil aralash kulib gapirdi Farrux.

- E, boringe, sizga gapirib nima qildim, - dediyu xotini ranjigan qiyofada xonasiga kirib ketdi.

Farrux yana kundaligiga yuzlanar ekan, yoshligidan buyon qiynab kelayotgan dardi ko‘ksining chap tomoni yengil sanchib qo‘ydi.

“Charchapman shekilli, yotib dam olaqolay. Vaqt ham allamahal bo‘lib qolibdi. Ertaga ham qiladigan ishlarim ko‘p”. Farrux shu xayollarda o‘rniga kirib yotdi. Biroq uyqusi kelmaganidan yana xayoli qochdi.

“Topish-tutishim aslida unchalik ham yomon emas. Faqat biroz qiyinchilik tug‘dirayotgani shu yashayotgan uyimning ijara masalasi. Topganimning yarmidan ko‘pi shu xarajatga ketayapti. Xotinimni ham tushunish kerak. U ham oilam, bola-chaqam deydida. Hechqisi yo‘q. Niyatimga yetishimga oz qoldi. Yana ozgina harakat qilsam, uyli bo‘laman.”

- Dadasi, turing, choy tayyor. Siz peshingacha uxlasangiz oilani kim tebratadi?

Farrux doim vaqtli uyg‘onardi. Kechasi kech yotgani uchunmi bugun nimagadir ko‘ngli g‘ash bo‘lib biroz kech uyg‘ondi. Xotinining ovozidan ancha uxlab qolganini sezdi-yu, yugurib turib yuz-qo‘lini yuvdi. Ishga kech qolayotgani uchun choyini shoshib ichdi.

- Mayli, men ketdim. Yaxshi o‘tiringlar.

- Bozorlik qilib keling.

- ....

Farrux yo‘lda keta turib bugun nima qilish kerakligini, tahrir qilinmagan va chala qolgan maqolalarini o‘ylab ketdi. Tahririyatga kelib hamkasblari bilan so‘rashib, ishga kirishib ketdi hamki ko‘nglidagi g‘ashlik tarqamadi. Ko‘ksidagi sanchiq kechagidan ancha kuchaydi. Har gal og‘riq turganda yaqinda ta’tilga chiqishini, qishloqda ota-onasining oldida mazza qilib dam olishini aytib, o‘ziga o‘zi va’da beradi.

“Ota-onamni ham sog‘inib ketdim. Tirikchilik deb ularni ham borib ko‘ra olmayman. Hayf-e menga o‘xshagan farzandga”.

- Farrux, seni bosh muharrir so‘rayapti, - hamkasbining chaqirig‘i xayolini bo‘ldi.

- Hozir boraman, tinchlikmikin?!

- Ha, tinchlikdir. O‘tgan sondagi tahliliy maqolang naf keltiribdi. O‘sha qishloq aholisini ichimlik suvi bilan ta’minlash ishlari boshlab yuborilibdi. Balki shuni aytmoqchidir.

Farruxning hamkasbi to‘g‘ri taxmin qilgan edi. Jamoada to‘g‘riso‘zligi va qalami o‘tkirligi bilan obro‘ topgan Farruxni muharrir juda hurmat qilardi.

- Mumkinmi, G‘ofur Solievich? – muharrirning qiya ochiq eshigidan boshini suqib so‘radi Farrux.

- Ha, kel, Farruxjon..

- Chaqirtirgan ekansiz?

- O‘tgan sondagi maqolang shov-shuv bo‘lib ketdi. Qishloq aholisidan rahmatnomalar kelayapti. Sening ustamonliging shundaki, yozganingda hech kimning “burni qonamaydi”. Lekin nishonga aniq tegadi.

- Rahmat, - maqtovdan biroz xijolat bo‘lib yerga qaradi Farrux.

- Sizga yana bir topshiriq, Farruxjon. Sud ocherki yozishingizga to‘g‘ri keladi. Tog‘dagi o‘g‘rilar galasining harakatlari kuchayib ketgani haqida aytgan edim. Shular haqida bir yozsangiz.

Farrux aslida bugun ta’tilga ruxsat olmoqchi, qishlog‘iga borib mazza qilib ota-onasining mehriga to‘ymoqchi, bolaligini eslab, ko‘chalarni kezmoqchi edi.

- Nima, taklifim yoqmadimi? – Farrux indamay qolganiga so‘radi muharrir.

- Yo‘q, nimaga. Mayli bugundan ishga kirishaman.

- Unda omad tilayman. Sizga ishonaman.

Farrux muharrirning xonasidan chiqqanida ko‘ksi yanada qattiqroq sanchdi. Biroz rangi oqargan shekilli hamkasblari hol-ahvol so‘radi.

- Farrux, yaxshimisiz? Mazangiz yo‘qmi?

- Yo‘q, hammasi joyida. Biroz toliqibman shekilli.

Kechgacha berilgan topshiriqlarni bajarib uyga vaqtliroq qaytdi. Bolalarini ko‘rgisi kelib, yo‘l-yo‘lakay ularga shirinlik ham oldi. Uyga kirib kelar ekan to‘rt yoshli Javohir peshvoz chiqdi.

- Mana o‘g‘lim, sizga shokolod olib keldim.

- Rahmat dadajon!- xursand bo‘lib ketdi o‘g‘li.

“Hayot naqadar shirinsan-a”. Farruxning xayoliga kelgan bu fikrdan o‘zi ham g‘alati bo‘lib ketdi.

- Mana onasi, bozorliklarni ol. Pulim yetganicha olib keldim. Bir amallab tur. Qolganini bir-ikki kunda olib beraman.

- Boriga xudo baraka bersin. Ovqatlanasizmi?

- Ishtaham yo‘q. Sal keyinroq...

Ko‘ksidagi og‘riq kuchaygandan kuchayib borayotgan bo‘lsada, yaqinlarini tashvishga qo‘ymaslik uchun indamadi. Shuning uchun ishtaham yo‘q deb bahona qilib qo‘yaqoldi. Indamasdan xonasiga kirib biroz yotdi. Aslida umuman dori ichmasada, og‘riq zo‘r bo‘lganidan tinchlantiruvchi doridan bittasini ichib yubordi va uxlashga harakat qildi. Ha deganda uyqusi kelavermagach ko‘ngli bir nimani sezgandek o‘rnidan turib kundaligini oldi va bir nimalarni yozishga tutindi. Yozganlariga bir ko‘z yugurtirib stolning ustiga qo‘ydi. Narigi xonaga o‘tish maqsadida joyidan turgan edi boshi aylanib yiqilib tushdi. Gursillab ketganidan narigi xonadan xotini yugurib keldi.

- Voy dadasi, sizga nima bo‘ldi?!

- Hech nima, hammasi joyida. Shovqin solma, bolalarni qo‘rqitasan. Tez yordam chaqir, biroz mazam bo‘lmayapti.

- Hozir, - dediyu xotini shifoxonaga qo‘ng‘iroq qilish uchun yugurib ketdi.

* * *

- Yuragi og‘ir kasal, - dedi Farruxni kasalxonaga olib kelib tekshirgan shifokor uning xotiniga.

- Axir qanaqasiga? Hali yosh bo‘lsa, ichmasa, chekmasa.

- To‘g‘ri, lekin eringiz ko‘p dard chekkan. Kasali o‘tib ketgan. Vaqtida davolatmagan. Dam olishsiz surunkali ishlagan, ko‘p narsani yuragiga olgan, ta’sirlangan.

- Nima qilsak bo‘ladi, doktor?

- Bilmadim, men bir nima deya olmayman.

Xotini yig‘lagancha uning yoniga kirdi. Kichik farzandi hali chaqaloq emasmi, tinmay yig‘lar, kechasi uyqusi bo‘linganidan norozi edi.

- Nimaga yig‘laysan?-xotinidan so‘radi Farrux o‘zini tetik ko‘rsatishga urinib.

- Uydagilarni chaqiraman.

- Yo‘q, keragi yo‘q. Men yaxshiman. Ularni xavotirga qo‘yma.

- Nimaga aldaysiz dadasi. Doktor menga hammasini aytdi.

- Demak hammasidan xabaring bor ekanda?!

- Ha.

- Xafa bo‘lma. Hammasi yaxshi bo‘ladi. Biz hali farzandlarimizning kamolini ko‘ramiz. Birgalikda baxtli bo‘lamiz. Uyimiz ham bo‘ladi. Unda tinch-totuv yashaymiz.

Farruxning gaplari ishonchsiz chiqayotgan bo‘lsada, hali hayotdan to‘ymagani shundoq ko‘zlaridan ko‘rinib turardi.

- Onasi, uyda stol ustida bir varaq qog‘oz qoldirib kelganman. Shuni olib o‘qi. Hammasini yozganman.

- Dadasi, unday demang. Hozirgina birga baxtli bo‘lamiz degandingizku, - yig‘lab gapirdi xotini.

- Men yolg‘on gapira olmas ekanman. Mendan rozi bo‘linglar. Ota-onamga, yaqinlarimga ayt. Hammasi rozi bo‘lishsin. Farzandlarimni va seni xudoga topshirdim. Ularni ehtiyot qil.

Farrux gapira turib butunlay hansirab qolgan, gaplari uzuq-yuluq chiqayotganidan bazo‘r tushunsa bo‘lardi.

- Siz ham bizdan rozi bo‘ling, - bu gapni aytish xotiniga qanchalik og‘ir bo‘lmasin aytishga majbur edi.

- Hayot naqadar go‘zal!

Farruxning ko‘zidagi bir tomchi yosh yonog‘iga dumalab tushar ekan, oxirgi aytgan gapi shu bo‘ldi.

* * *

Farruxning ma’rakalari o‘tgach, xotini uning oxirgi vasiyati – stol ustida qoldirgan xatni o‘qish uchun xonasiga kirdi va xatni oldi.

“Onasi, men sizlarni, ota-onamni, yaqinlarimni, hayotni sevaman. Men hayotimning oxirgi lahzalarini yashayotganimni sezayapman. Bilaman, menga turmushga chiqib ro‘shnolik ko‘rmading. Na bir o‘zingning uyingda yashay olding, na bir istagan kiyimingni kiya olding. Bular uchun men sendan uzr so‘rayman. Lekin men hayotimni quruq o‘tkazmadim. Yaxshi nom qoldirdim. Menga armon bo‘layotgani ota-onam keksayganda ularning duosini ko‘proq olaolmadim, xizmatlarini qila olmadim. Kundalik yozayotgan edim chala qoldi. O‘quvchilarimga aytadigan gaplarim ko‘p edi.

Onasi, bolalarimizni o‘qit. Bankda bitta uyga yetadigan pul jamg‘arib qo‘yganman. Faqat senga aytmagan edim. Sovg‘a qilmoqchi edim. O‘zingni ehtiyot qil.”

Oradan ko‘p o‘tmay Farruxning xotini bir xonali bo‘lsada uy sotib oldi. Faqat unga Farrux kirib chiqmayotgan edi.

“Hayot qanchalar beshafqat”. Bu chala qolgan kundalikning eng oxirgi sahifasidagi yozuv edi.

**O‘tkir O‘SAROV.**

## Досуг

# НАШИ РУКИ, НЕ ДЛЯ СКУКИ!

**Хобби – занятие, которому человек с радостью уделяет свободное время. Увлечение помогает отвлечься от работы и плохого настроения, справиться со стрессом. Когда мозг перестраивается с рутины или работы на хобби, он активизируется в другом направлении. Потом легче вернуться к предыдущему занятию, решить проблемы, с которыми столкнулись до этого.**



Герои сегодняшнего выпуска рассказали о своих хобби.

В системе комбината Лилия Идрисова работает 14 лет. Трудовую деятельность начинала в Южном рудоуправлении инженером горного отдела по золоту. Сегодня она инженер в геологическом отделе управления АО «Навоийский ГМК». Лилия Камильевна приняла активное участие в составлении книги «История создания и развития урановой отрасли Узбекистана», посвящённой 65-летию Навоийского ГМК.

Хобби у нашего геолога довольно женственные, но требующие выносливости и усидчивости, фантазии и творческих особенностей характера. Первое, о котором мы расскажем, - это вышивка крестиком. Особенно любит вышивать сложные картины с очень интересной и красивой тематикой (древние улицы Каира, каналы Венеции, миниатюры из жизни Востока и Европы). Как говорит сама Л.Идрисова, вышивание способствует улучшению мелкой моторики, требует собранности и внимательности, совершенствует память, что отлично помогает в основной работе.

В сентябре прошлого года в Навои на стадионе «Химик» проходила областная выставка, где Лилия Камильевна впервые продемонстрировала свои картины. За прекрасно выполненные работы она получила благодарственное письмо от хокима Навоийской области, предложение официально стать членом Ассоциации ремесленников Навоийской области и принять участие в международном фестивале.

- В Коканде с 21 по 23 сентября 2023 года проходил II Международный фестиваль народно-прикладного искусства. В нём приняли участие более 2,5 тысяч отечественных и зарубежных мастеров различных ремёсел из более чем 60 стран мира. Я участвовала от Навоийской области, - делится Лилия. - Данный фестиваль важен для сохранения и развития традиционных видов декоративно-прикладного искусства и ремёсел, повышения их престижа, популяризации различных направлений народного творчества, а также для предоставления каждому участнику условий для максимально полной реализации творческого потенциала. На фестивале мне вручили памятный подарок и сертификат от Министерства культуры Республики Узбекистан, хокима Ферганской области и председателя Ассоциации «Хунарманд» Республики Узбекистан.

В детстве и юности у Лилии было много интересных хобби, например, художественная гимнастика, лёгкая атлетика, катание на скейте, игра на гитаре, курсы шитья и машинной вышивки. Она тот человек, который должен быть занят каждую минуту. Помимо хобби вышивания крестиком она занимается и кулинарией. Пусть приготовление блюд входит в разряд основных женских обязанностей, но, надо согласиться, что всё чаще сегодня деловые женщины предпочитают походы в кафе и рестораны, или доставку еды на дом. А Лилия выбирает исключительно домашнюю пищу, приготовленную своими руками. Это её второе увлечение, которое, признаваясь честно, и не считает-то хобби.

- Не знаю почему, но мне безумно нравится проводить время на кухне, - рассказывает Лилия. - Я никогда не училась готовить. Просто смотрела, как готовят бабушка и мама, и очень хотела им помочь. Позже решила начать готовить самостоятельно. Чувствовала себя вполне уверенно и немного странно. Вдруг поняла, сколько рецептов и семейных секретов знаю. Могу приготовить практически все. Мне нравится искать новые рецепты и готовить новые блюда. Кажется, кулинария - это самое полезное хобби. Главными ценителями вкусных пирогов, салатов, тортов являются мои коллеги-друзья и сын, которых балую и радую почти каждый день.

Радовать людей получается и у второго нашего героя - Виктора Яковлева. Яркими и качественными фотоснимками с различных мероприятий и промышленных объектов Навоийского ГМК он создает фотобанк, чтобы использовать фотографии в нашей газете, книгах и фотоальбомах, различных СМИ, в которых пишется история комбината. Его хобби – фотография. До 2016 года Виктор 15 лет трудился на модельном участке литейного цеха Навоийского машиностроительного завода, а в свободное время брал камеру и фотографировал - природу, людей, животных, всё - абсолютно всё и всех. Благодаря сарафанному радио, быстро распространилась информация среди рабочих о парне из литейного цеха, который красиво фотографирует. Так его стали приглашать на производственные праздники в качестве фотографа. Позже руководство НГМК пригласило работать в пресс-центр управления фотокорреспондентом.



- Моя мечта осуществилась: увлечение, приносящее мне удовольствие, стало моей постоянной работой, - рассказывает В.Яковлев. - Два года назад я поступил в Университет журналистики и массовых коммуникаций Узбекистана, в чём меня также поддержало руководство комбината.

Ещё один работник комбината, пожелавший рассказать о своём хобби - Анастасия Муллагалиева. В 2012 году, по окончании Томского политехнического университета, начала трудовую деятельность в Центральной научно-исследовательской лаборатории лаборантом химико-технологических исследований. На сегодняшний день работает в технологическом отделе управления НГМК инженером-технологом.

- Моё хобби – вязание крючком, - рассказывает А.Муллагалиева. - Наши руки не для скуки! С пользой проводить время умеет не каждый, зачастую мы тратим его впустую, не подозревая, что можно было за этот период освоить что-то новое. Вязание крючком – хобби на все времена, вяжут не только бабушки, но и молодое поколение интенсивно впитывает культуру «сделано своими руками». И можно позавидовать креативности и мышлению, обилию новых приёмов в вязании, которые придумывают и изобретают продвинутые вязальщицы.

В семье Анастасии вязать умеют все. Не обошло стороной это умение и её. Сначала вязала различные тапочки, тёплые головные уборы. Но этот «ассортимент» быстро наскучил. И тогда она стала искать что-то новое для себя. Вышивание, шитьё, плетение из макраме и бисера, поделки из природного материала, рисование… А совсем недавно на просторах интернета Анастасия открыла для себя технику амигуруми - японское искусство вязания на спицах или крючком маленьких мягких зверушек и человекоподобных существ.



- Так как вязать, как говорилось выше, я умею, то попробовала связать игрушки к символу наступившего года - дракончиков, - дополняет Анастасия Викторовна. - Они получились красивые и как будто живые. Игрушки, созданные моими руками, исполняются исключительно в хорошем расположении духа, чтобы заказчикам они приносили удачу!

Хобби наполняет повседневную жизнь особым смыслом, поднимает настроение, приносит удовольствие и радость. Благодаря хобби, человек познает мир, расширяет свой кругозор и оттачивает способности. Любимое занятие помогает самореализации и удовлетворяет человеческие потребности, придавая яркость нашей жизни.

**Ситора АСАНОВА.**

KONCHILAR HAYOTI
MUASSIS:
“NAVOIY KON-METALLURGIYA KOMBINATI” AJ

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2022-yil 4-fevralda 1521-raqam bilan qayta ro‘yxatga olingan.

Muharrir:
**Nizomiddin SADRIDDINOV**

ISSN 2010-5266

**Tahririyat manzili:**
210100.
Navoiy shahri, Navoiy ko‘chasi, 27-uy,
“NKMK” AJ boshqarmasi
**Telefonlar:**
Muharrir: 79 227-74-64.
Faks: 79 227-75-66

Gazeta har oyda ikki marta chop etiladi va “Navoiy kon-metallurgiya kombinati” AJ, “Navoiyuran” DK, “NKMK jamg‘armasi” DM bo‘linmalariga tarqatiladi.
Bahosi kelishilgan narxda.

Gazeta “Konchilar hayoti” gazetasi tahririyatida terildi va sahifalandi.
“Noshir Lux” MChJ bosmaxonasida ofset usulida bosildi.
Nashr sifati bo‘yicha (91) 557-10-95 raqamli telefonga murojaat etishingiz mumkin.
**Bosmaxona manzili:** Samarqand shahri, Spitamen ko‘chasi, 270-uy.

Navbatchi: **Nasiba SHAMURATOVA**
Texnik muharrir: **Zafarjon OLIMOV**

Qog‘oz bichimi A2. 12100 nusxada chop etildi.
Buyurtma № 049.
2024-yil 26-yanvar 17:00 da chop etishga topshirildi.